vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, o‘zini o‘zi ish bilan band qilish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishga erishish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarga asosan Samarqand viloyati Narpay tumanida ham sezilarli darajada ishlar amalga oshirildi.

2020-yil aprel oyida tumanda 212 ming nafar kishi 45951 ta oilalarda istiqomat qilib kelgan. Shundan 3011 ta kam ta’minlangan (kambag‘al) oilalar Temir daftarga kiritilgan va ushbu oilalarning 14299 nafar oila a’zolari mavjud bo‘lgan.

Jumladan: 2074 tasi doimiy ishga ega bo‘lmagan kam daromadli shaxslar; 234 tasi boquvchisini yo‘qotganlar; 392 tasi nogiron va surunkali kasallikka ega bo‘lganlar; 103 tasi ko‘p (5 va undan ortiq) bolali oilalar; 40 tasi sharoiti og‘ir bo‘lgan chet eldan qaytgan mehnat muhojirlari; 168 tasi boshqa sabablarga ko‘ra muhtoj oilalarni tashkil etmoqda.

Ushbu oilalarning 1238 tasi (41%) byudjetdan ijtimoiy nafaqalar to‘lanib kelingan (1 oyda o‘rtacha 434.mln.so‘m to‘lab beriladi).

Shuningdek, o‘rganish davomida 3011 ta muhtoj oilalarning 5848 nafar mehnatga layoqatli va ijtimoiy himoyaga muhtoj a’zolari borligi aniqlandi. Xususan:

- 1510 nafari mutaxassislikka ega bo‘lib, hozirgi kunda ishsizligi;
- 2308 nafari shaxsiy tomorqasida band qilishi imkoniyati mavjudligi;
- 896 nafari mutaxassisligi bo‘lmagan ishsiz fuqarolar;
- 709 nafari tadbirkorlik istagidagi fuqarolar;
- 91 nafari ishlashdan bo‘yin tovlagan fuqarolar;
- 334 nafari ishlashga imkoni yo‘q fuqarolar (ijtimoiy himoyaga olinadi) borligi ma’lum bo‘ldi.

Tumanda 3309 ta kambag‘al oilalar “Temir daftar” ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib 2020-2021-yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida 3244 nafar oilalar “Temir daftar” ro‘yxatidan chiqarildi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martdagi 152-sonli ““Mahallabay” ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholinining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bo‘yicha mahallalarda ustuvor yunalishlar belgilab olinib, yangicha ishlash tizimini joriy etib, oilalarga daromad manbai yaratish, tomorqasidan samarali foydalanish hamda daromadli mehnatga bo‘lgan intilishlarini va ehtiyojlarini “xonadonbay” o‘rganish, band bo‘lmagan aholini ayniqsa ishsiz yoshlar va xotin-qizlarni muammolarini o‘rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi kurslarga yo‘naltirish va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishgga amaliy yordam berish;

Yoshlarni tadbirkorlik tashabbuslarini va sartap g‘oyalarini yanada qo‘llab-quvvatlash;

Mahallaning “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash, mavjud imkoniyatlarni o‘rganish, va ulardan samarali foydalanish orqali joylarda tadbirkorlik, investitsiyaviy va raqobat muhitini yaxshilash masalalari bo‘yicha ish olib boradi.

2020-yilda Narpay tumani mahalla fuqarolar yig‘inlarida Koronavirus pandemiyasi sharoitida “Temir daftar”ga kiritilgan hamda sessiya qarori bilan chiqarilganlar oilalar bo‘yicha ma’lumot[8] (7-jadval)

| T/r | Hududlar | 2020-yil Temir daftar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Dastlabki at | Yangi ilgan .2020 Q-48-09 | Jami landi | 1-sessiya .2020 Q-48- daftardan rldi | 2-sessiya .2020 Q-72- daftardan rldi | 3-sessiya .2020 Q-90/18 dan chiqarldi |
| | | Oila soni | Oila soni | Oila soni | Oila soni | Oila soni | Oila soni |
| | Tuman | 3 011 | 298 | 3 309 | 410 | 881 | 589 |
| 1. | 1-sektor | 949 | 109 | 1 058 | 109 | 249 | 213 |
| 2. | 2-sektor | 600 | 31 | 631 | 84 | 121 | 181 |
| 3. | 3-sektor | 472 | 50 | 522 | 68 | 164 | 93 |
| 4. | 4-sektor | 990 | 108 | 1 098 | 149 | 347 | 102 |

2020-yilda Narpay tumani mahalla fuqarolar yig‘inlarida Koronavirus pandemiyasi sharoitida “Temir daftar”ga kiritilgan hamda sessiya qarori bilan chiqarilganlar oilalar to‘g‘risidagi jadvalga e’tibor qaratadigan bo‘lsak 2020-yil boshidan jami 3011 ta oila kiritilib ushbu raqamlar tumandagi 4 ta sektorlarga taqsimlanib ularni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha dastlabki ishlar boshlangan.

2021-yilda Narpay tumani mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Temir daftar”ga kiritilgan hamda sessiya qarori bilan chiqarilganlar oilalar bo‘yicha ma’lumot[9]

(8-jadval)

| T/r | Hududlar | 2021-yil Temir daftar | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2021-yil 1-yanvar holatiga | 4-sessiya 22.01.2021 Q-10 daftardan chiqarldi | 5-sessiya 27.03.2021 Q-6 daftardan chiqarldi | 6-sessiya 23.04.2021 Q-6 daftardan chiqarldi | 7-sessiya 02.10.2021 Q-38-K/21 daftardan chiqarldi | 8-sessiya 09.11.2021 dan chiqarldi | 9-sessiya 28.12.2021 dan chiqarldi | Jami chiqarilganlar | 01.01.2022 yilga mavjud |
| | | Oila | Oila | Oila | Oila | Oila soni | Oila | Oila | Oila | Oila |
| | Tuman | 1429 | 504 | 355 | 386 | 75 | 28 | 16 | 3244 | 65 |

[8] Narpay tumani Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi 01.06.2020
[9] Narpay tumani Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi 30.12.2021

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | 1-sektor | 487 | 172 | 118 | 128 | 19 | 28 | | 1036 | 22 |
| 2. | 2-sektor | 245 | 108 | 61 | 40 | 16 | | | 611 | 20 |
| 3. | 3-sektor | 197 | 84 | 40 | 54 | 10 | | | 513 | 9 |
| 4. | 4-sektor | 500 | 140 | 136 | 164 | 30 | | 16 | 1084 | 14 |

Xalq deputatlari Narpay tuman Kengashining 2020-yil 3-dekabrdagi 90/18-sonli qarori bilan “Temir daftar”da ruyxatda turadigan 2018 ta kambag‘al oilalardan 589 tasini doimiy bandligi ta’minlanib kambag‘allik ro‘yxatidan chiqarilgan.

“Temir daftar”da qolgan 1429 ta oilalarga olib borilgan ishlar natijasida ushbu oilalarning 1446 nafar mehnatga layoqatli ishsiz a’zolarining 1435 nafarini ya’ni (99 foizi) bandligi ta’minlangan.

“Temir daftar”ga kiritilgan fuqarolarning daromad manbaini oshirish maqsadida tadbirkorlik yo‘nalishida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan 155 ta oilaga 2789 mln. so‘mlik imtiyozli kreditlar, 294 ta oilaga subsidiya asosida issiqxonalar qurib berilgan. Jumladan, tuman aholisining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari tahlil qilib chiqilganda, “Temir daftar”ga dastlab 3309 ta oilalar kiritilgan edi.

“Temir daftar”ga ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor, yakka-yolg‘iz va o‘ta nochor oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Saxovat va ko‘mak” xarakati doirasida jami qiymati 5,4 mlrd.so‘m mablag‘lar sarf etilib, daftarga ro‘yxatga olingan oilalar uchun oziq-ovqat, dori-darmonlar, bandligini ta’minlash uchun 2000 dan ortiq asbob-uskunalar hamda yirik va mayda shoxli chorva mollari tarqatildi.

2021-yil hisobidan “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqasadida jami 608 nafar fuqarolarga 1 mlrd. 317 mln.so‘mlik moddiy yordamlar ko‘rsatildi.

“Temir daftar”da turgan ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikga o‘rgatish, ish joylar bilan ta’minlash va doimiy daromadga ega bo‘lishi uchun ko‘rsatilgan barcha turdagi yordamlar natijasida joriy yilning 2022 yilning 1-dekabr xolatiga “Temir daftar”dan jami chiqarilgan oilalar soni 3200 tani tashkil etdi.

2022-yilda Narpay tumani mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Temir daftar”ga kiritilgan hamda sessiya qarori bilan chiqarilganlar oilalar bo‘yicha ma’lumot[10]

(9-jadval)

| T/r | Hududlar nomi | 2022-yil Temir daftar | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 01.01.2022 yilga ıd | 10-sessiya .2022 VI-47-31-7-98- daftarga kiritildi | Jami yilda | 11-sessiya .2022 dan chiqarldi |
| | | Oila soni | Oila soni | Oila soni | Oila soni |
| | Tuman jami: | 65 | 1 206 | 1 271 | 115 |

[10] Narpay tumani Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi 30.12.2021

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | 1-sektor | 22 | 402 | 424 | 36 |
| 2. | 2-sektor | 20 | 231 | 251 | 22 |
| 3. | 3-sektor | 9 | 206 | 215 | 20 |
| 4. | 4-sektor | 14 | 367 | 381 | 37 |

Narpay tumani xalq deputatlari kengashining 2023-yil 19-apreldagi VI-67-33-7-98-K/23-sonli qarori bilan mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Temir daftar” ga kiritilgan hamda sessiya qarori bilan chiqarilgan oilalar to‘g‘risida ma’lumot[11]

(10-jadval)

| T/r | Xududlar | | | | Tuman sessiya qarori bilan rilganlar | | | Tuman sessiya qarori bilan ganlar | | | Temir daftarda qolgan oilalar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Oilalar soni | Oila a’zolari soni | Mehnatga layoqatlilar soni | Oilalar soni | Oila a’zolari soni | Mehnatga layoqatlilar soni | Oilalar soni | Oila a’zolari soni | Mehnatga layoqatlilar soni | Oilalar soni | Oila a’zolari soni | Mehnatga layoqatlilar soni |
| | Tuman | 777 | 3104 | 1152 | 32 | 157 | 54 | 23 | 39 | 6 | 768 | 2986 | 1104 |
| 1. | 1-sektor | 257 | 1026 | 368 | 9 | 49 | 12 | 5 | 12 | 3 | 253 | 989 | 359 |
| 2. | 2-sektor | 127 | 475 | 203 | 5 | 20 | 8 | 5 | 8 | 1 | 127 | 463 | 196 |
| 3. | 3-sektor | 134 | 540 | 184 | 7 | 38 | 14 | 5 | 5 | 0 | 132 | 507 | 170 |

[11] https://e-qaror.gov.uz/search?region_id=7&district_id=98&accept_date=2023-04-13

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4. | 4-sektor | 259 | 1063 | 397 | 11 | 50 | 20 | 8 | 14 | 2 | 256 | 1027 | 379 |

Shuningdek “Ayollar daftari”ning 1-bosqichida 1809 nafar ayollar kiritilgan bo‘lib, shundan 218 nafariga moddiy yordam ko‘rsatilgan, 980 nafar ayollar mavjud bo‘shish o‘rinlariga, qishloq xo‘jaligi ishlariga joylashtirildi va o‘zini o‘zi band qildi, 634 nafar tomorqasiga, 220 nafar ayollar kasb-hunarga o‘qitildi, 126 nafar ayollarga kredit ajratilib bandligi ta’minlandi, 95 nafar ayollarga ijtimoiy yordamlar ko‘rsatildi, 155 nafar tibbiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand ayollar chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi, 3 nafariga “Ayollar maslahat kengashi” psixologlari tomonidan yordamlar ko‘rsatildi.

Ushbu “Ayollar daftari”ning 2-bosqichiga tuman bo‘yicha jami 2552 nafar ayollar kiritilgan bo‘lib, 400 nafariga asbob-uskuna tarqatilgan, yana 200 nafariga tarqatish uchun asbob-uskunalarga buyurtma berilgan, 308 nafar ayollarga 980 ming so‘mdan jami 301 840 000 so‘m moddiy yordam berilgan, 8 nafariga davolanish va operatsiya qilish bo‘yicha 178 mln.so‘m mablag‘lar viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasiga o‘tkazib berilgan.

45 nafari doimiy ish bilan ta’minlandi, 35 nafariga turli maqsadlarda kreditlar ajratildi, 117 nafari kasb-hunarga o‘qitildi va psixologik, tibbiy yordamlar ko‘rsatildi.

“Ayollar daftari”dagi 200 nafar ayollarni Toshkent, Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlariga ziyoratgohlarga olib borib manaviy hordiq chiqarishiga yordamlashildi.

2023 yil 4-bosqich “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar to‘g‘risida ma’lumot[12]
(11-jadval)

| Hududlar nomi | "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar soni | | | Shundan: | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 1.Ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar soni | | 2. Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan extiyojmand xotin-qizlarga imtiyozli kredit ajratish | | 3. Boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar soni | | Shundan 3.1. Uy-joyi ta’mirlanadigan xotin-qizlar soni | |
| | Reja | Amalda | Foiz | Reja | Amalda | Reja | Amalda | Reja | Amalda | Reja | Amalda |
| Narpay | 5 851 | 1 082 | 18% | 2 156 | 563 | 377 | 196 | 1 265 | 5 | 11 | 5 |

Narpay tumanida 2023-yilda Ayollar darftariga kiritish 4-bosqichida tumanda jami 1082 nafarni tashkil qiladi. Shunga qaramasdan 2023-yilda ushbu daftarga 5851 nafar xotin-qizlarni kiritish reja qilib olingan. Ularni ushbu daftarga kiritish orqali ishsizlarini bandligini ta’minlash, sog‘ligidan muammolari borlarini davolatish va boshqa ijtimoiy muammolariniga ijobiy yechim topishni maqsad qilib olingan.

[12] Samarqand viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasi 20.03.2023

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATIGA:**

105. 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni

106. 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Respublikasi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlar

107. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.

108. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.

109. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.

110. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).

111. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1).

112. Tashmuratovich, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 20-28.

113. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.

114. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. MASTERS, 1(1), 127-131.

115. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.

116. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 712-721.

117. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. PEDAGOG, 6(4), 568-574.

118. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. Pedagog, 6(11), 237-246.

119. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(5), 26-38.

120. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 193-203.

121. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. PEDAGOG, 6(11), 247-254.

122. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 306-318.

123. Kozimbek G‘anijon o‘g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG‘ALLIKNI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA UNDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 1-11.

124. Erkin o‘g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG‘ALIKNI BARTARAF ETISH BO‘YICHA ERISHILGAN NATIJALAR. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 12-19.

125. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 240-250.

126. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 232-239.

127. Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O‘g‘li, F. U. X. (2024). O ‘ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 222-231.

128. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 369-378.

129. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 379-386.

130. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 387-395.

131. Ilyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. JournalNX, 453-456.

132. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.

133. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 7(1), 52-62.

134. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.

135. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.

136. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.

137. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo 'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.

138. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World of Science, 6(4), 345-351.

139. Абдигаппарович, И. Ҳ., & Юлдашев, Ш. Х. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 361-368.

140. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.